

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01**  
**RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURAXMANOV RAMAZAN ABDULLAYEVICH**

**BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI  
NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Abduraxmanov Ramazan Abdullayevich**

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini  
takomillashtirish..... 3

**Абдурахманов Рамазан Абдуллаевич**

Совершенствование системы учета и внутреннего контроля в бюджетных  
организациях..... 31

**Abdurakhmanov Ramazan Abdullaevich**

Improvement of accounting and internal control system in budget  
organizations..... 61

**E‘lon qilingan ishlap ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURAXMANOV RAMAZAN ABDULLAYEVICH**

**BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI  
NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2024 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3549 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich</b> iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Mamatqulov Murodjon Shukurovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent davlat agrar universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_»\_\_\_\_\_soat\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51 e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51 e-mail: [kutubxona@tsue.uz](mailto:kutubxona@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**S.U.Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V.Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K.Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida davlat sektori buxgalteriya hisobi tizimi budjet mablag'larining maqsadli va manzilli sarflanishi bo'yicha hisobdorlikni hamda ularga oid axborotlarning ochiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC) tomonidan e'lon qilingan "Davlat sektorida moliyaviy hisobdorlik indeksi 2021 yil hisobotiga ko'ra, dunyo miqyosida buxgalteriya hisobining hisoblash usulini joriy qilgan davlatlarning 57 foizi Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IPSAS) dan foydalanmoqda»<sup>1</sup>. Budjet tizimida mablag'larni taqsimlash, ijrosini amalga oshirish va nazorati uzluksizligini ta'minlashda davlat sektori buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining rolini kengaytirish yuzasidan hukumatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Jahonda davlat sektori tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va ichki nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlat sektori tashkilotlarining moliyalashtirish manbalarini samarali tashkil etish, daromadlarini to'g'ri shakllantirish, shakllantirilgan daromadlarni maqsadli sarflash, tuzib taqdim etilayotgan hisobotlarning axborotlari ochiqligini ta'minlash va hisobdorlikni oshirish, davlat sektori tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish, avtomobil yo'llari tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil etish tartibini Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashtirish orqali mablag'lar sarfiga oid hisobdorlik va ochiqlikni ta'minlash yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot obyekti hisoblangan avtomobil yo'llari tizimida "2024 yilda avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash, saqlash, ko'kalamzorlashtirish, tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, qo'mita va uning tuzilmasidagi tashkilotlarni saqlash maqsadida jami 5484823,6 mln. so'm"<sup>2</sup> mablag' yo'naltirilishi belgilangan. Ushbu mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi, ular bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan nazorat va hisobdorlik bevosita avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini va ichki nazorat tizimini tashkil qilish zaruriyatini belgilab beradi hamda mazkur jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi. Xususan, tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning

---

<sup>1</sup> International Public Sector Financial Accountability Index 2021 Status Report. <https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/main-challenges-public-sector-accounting-reforms-and-world-bank-s-public-sector-accounting-and>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/en/docs/6707765#6710514>

amaldagi holatini baholash, mavjud ichki nazorat tizimining amal qilish holatini o‘rganish, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish vazifalarini vujudga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PF-4954-son "Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni, 2019-yil 9-dekabrda PQ-4545-son "Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida", 2023-yil 10-oktyabrda PQ-330-son "Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2776-son "O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tadqiq qilish bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar va maqolalarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, ular qatoriga V.Bashkatov, Jorge de Jesus, JSB Eirado, Jens Heiling, O.Krasnoperova, Yu.Kutirev, T.Maslova, O.Mitina, V.Pokusaev, T.Poleshuk, M.Ryabova, Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab, Tang Tri Hung, Nguyen Huu Thien, Nguyen Hieu Trung, Le Thuy Dung larning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan<sup>3</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.Abdusalomova, A.Bakaybayeva, R.Do‘smuratov, A.Ibragimov, K.Ibragimov, S.Mehmonov, A.Ostonokulov, M.Ostonaqulov, B.Sugirbayev, B.Xasanov, Sh.G‘aniyev, Z.Xamidovalar

---

<sup>3</sup> Башкатов В. В., Покусаев В. Ю. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Журнал "Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения". Выпуск № 13 / 2014. 320 с.; MA Jorge de Jesus, JSB Eirado. Relevance of accounting information to public sector accountability: A study of Brazilian federal public universities. TÉKHNE - Review of Applied Management Studies. 2012.; Jens Heiling (2020) Contributing to The Global Economy. Public Sector Accounting - A Discipline in Its Own Right. ERNST & YOUNG GMBH, Stuttgart, Germany. September 29, 2020.; Кондраков Н.П. и др. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. -М.: Проспект, 2006.; Красноперова О. Бюджетный учет – М.: "ГроссМедиа Ферлар", 2008.; Кутырев Ю.А. Совершенствование контроля в бюджетной сфере в условиях принятия Федеральных стандартов внутреннего финансового аудита. Вестник Евразийской науки. 2020, №6, Том 12; Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. Учебное пособие. 2020 г. 138 стр.; Полещук Т.А., Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. –М.: "ИНФРА-М", 2017. 227 с.; Рябова М.А. и друг. Бюджетный учет и отчетность : учебное пособие / - Ульяновск : УлГТУ. 2010.; Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A Survey on the Impact of Accounting Information System on Tasks Efficiency: Evidence from Malaysian Public Sector Agencies. International Review of Management and Marketing. ISSN: 2146-4405. 2017, 7(1), 183-190.; Tang Tri Hung, Nguyen Huu Thien, Nguyen Hieu Trung, Le Thuy Dung. Relationship between accounting information system and internal control system. TAIP CHÍ COÀNG THỒNG. Tháng 8/2017.

tomonidan budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda ichki auditning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan<sup>4</sup>.

Ta'kidlash zarurki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan avtomobil yo'llari tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy muammolari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tizimini moliyalashtirish manbalarini isloh qilish bilan bog'liq amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini keltirib chiqaradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari faoliyatining ahamiyati va asosiy yo'nalishlari hamda tizimdagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining zarurligini nazariy jihatdan asoslash;

budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining huquqiy asoslarini yoritish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish amaliyotini o'rganish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi holatini tadqiq qilish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda ichki nazorat tizimining amaldagi holatini o'rganish;

---

<sup>4</sup> Абдусаломова Н.Б. Ички назорат методологиясини такомиллаштириш. Монография. –Т.: «ТДИУ», 2023, 384 б.; Бакайбаева А.С. Ўзбекистон Республикасида бюджет ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш йўллари. иқт. фан. фал. док. дис. автореферати. –Т.: 2020. – 52 б.; Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003. – 612 б.; Ибрагимов А., Сугирбаев Б. «Бюджет назорати ва аудити». –Т.: infoCOM.uz МЧЖ, 2010; Ибрагимов К. Бюджет ташкilotларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2018. -56 б.; Меҳмонов С. Бюджет ташкilotларида бухгалтерия ҳисоби: назария ва амалиёт. –Т.:»Iqtisod va moliya». 2016.-136 б.; Остонақулов А. «Бюджет ташкilotларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш» монография. Т: ВНЕШИНВЕСТПРОМ нашриёти, 2021, 208 бет.; Остонақулов М. «Бюджет ташкilotларида янги бухгалтерия ҳисоби». –Т.: Янги аср авлоди, 2011; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш масалалари: иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: Ўз.Р.БМА. 2004. – 42 б.; Ғаниев Ш. Бюджет ташкilotларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш (таълим тизими мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2008.; Хамидова З.У. Бюджет ташкilotларида ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятини самарали ташкил қилиш масалалари. Монография. – Т.: «VNESHINVESTPROM» 2021. 183 б.

avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini o‘rganish hamda ularning tahlilini amalga oshirish;

avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi budjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid iqtisodiy munosabatlar majmui olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada abstrakt mantiqiy fikrlash, taqqoslash, kuzatish va tahlil qilish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik tadqiqot, tizimli yondashuv, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini umumlashtirgan namunaviy hisob siyosati hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta‘minlash, hisob obyektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga ko‘ra takomillashtirilgan;

“Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to‘g‘risidagi nizom”ni ishlab chiqish asosida aktivlarni to‘g‘ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejimli va samarali foydalanish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda obyektivligini ta‘minlash asoslangan;

budjet tashkilotlari hisob siyosatida xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari bo‘yicha moliya yili oxiriga bo‘lgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun me‘yorlarini 15 kunga uzaytirish orqali “Xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirish taklifi asoslangan;

budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarini 161400/1 (063/1) - “Budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” hamda budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarini 161400/2 (063/2) - “Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” ishchi schyotlarida hisobga olish orqali moliyalashtirish manbalari bo‘yicha xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

moliya yili davomida qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yiliga oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish



uchun o'tkazish mablag'lardan smetalar doirasida foydalanishlarini ta'minlashga xizmat qilgan;

shakllantirilgan namunaviy hisob siyosatini qo'llash qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishi, inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash, sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga xizmat qilgan;

qo'mita va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi namunaviy nizom tarkibiy bo'linmalar tomonidan aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejimli va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarni bajarish, buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash imkoniyatini bergan;

budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kanselyariya mahsulotlarini alohida ishchi buxgalteriya schyotlarida hisobga olish qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha xo'jalik va kanselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkoniyatini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot ishida qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumiy tan olinganligi hamda maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanilganligi, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatiga oid ma'lumotlarning rasmiy moliyaviy hisobotlardan olinganligi, xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlar hamda budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish uchun joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirishda nazariy-metodologik manbaa sifatida, "budjet hisobi" hamda "budjet nazorati" fan dasturlarini ilmiy va nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish, shuningdek, tizim tashkilotlariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, dasturlar, chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini umumlashtirgan namunaviy hisob siyosati hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishi, inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash, sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob ob'ektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga xizmat qilgan;

“Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi nizom”ni ishlab chiqish asosida aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida tarkibiy bo'linmalar tomonidan aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarni bajarish, buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash imkonini bergan;

budjet tashkilotlari hisob siyosatida xo'jalik va kanselyariya mahsulotlari bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun me'yorlarini 15 kunga uzaytirish orqali “Xo'jalik va kanselyariya mahsulotlari” xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha “Xo'jalik va kanselyariya mahsulotlari” xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirishga xizmat qilgan;

budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarini 161400/1 (063/1) - “budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” hamda budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarini 161400/2 (063/2) - “budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” ishchi schyotlarida hisobga olish orqali moliyalashtirish manbalari bo‘yicha xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 1 ta xalqaro, 2 ta mahalliy maqola, 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan, 2 ta mahalliy, 1 ta nufuzli xorijiy jurnalda ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari o‘zaro uyg‘unlikda tanlab olingan, tadqiqotning obyekti va predmeti mutanosib holda belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining nazariy hamda uslubiy asoslari**» deb nomlanib, unda avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari faoliyatining ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining nazariy asoslari hamda budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining uslubiy asoslari tadqiq etilgan.

Avtomobil yo‘llari tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish yuzasidan izlanishlarda avvalo, normativ huquqiy hujjatlarni o‘rganish zarur. Bu boradagi normativ huquqiy hujjatlarni

shartli ravishda katta ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni o‘rganib chiqiladi. Ikkinchi guruhda esa, avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid normativ huquqiy hujjatlar tadqiq etiladi.



### 1-rasm. Avtomobil yo‘llari tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tartibga soluvchi hujjatlar<sup>5</sup>

Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlar. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hamda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, shaharlarning, shahar posyolkalarining, qishloqlarning va ovullarning ko‘chalarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.<sup>6</sup>

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasini rivojlantirish va faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi daromadlari tarkibida chet davlatlar avtotransport vositalarining kirganligi va uning hududi orqali tranzit o‘tishi uchun yig‘im summasining 40 foizi, respublikaga kirib kelayotgan og‘ir vaznli va/yoki yirik gabaritli transport vositalarining respublika hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit o‘tishi uchun yig‘imlar va to‘lovlar, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida tashqi reklamani joylashtirish huquqi uchun yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar aks etishi belgilangan.<sup>7</sup>

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 2 oktyabrdagi o‘RQ-117-son “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonuni. 13-modda.


<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrdagi PQ-4545-son “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

Avtomobil yo‘llari tizmidagi budjet, davlat maqsadli jamg‘armasi va budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish, yo‘l xo‘jaligi sohasida xarajatlarni qisqartirish maqsadida zarur chora-tadbirlar belgilab berildi.<sup>8</sup> Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi va uning tarkibiy tuzilishi maqbullashtirilib, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish, tizimning samarali faoliyat yuritishiga qaratilgan. Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarining namunaviy tuzilmalari belgilab berildi.<sup>9</sup>

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi hamda uning faoliyatini tartibga soluvchi nizom tasdiqlangan. Ushbu nizom bilan jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish, jamg‘arma mablag‘larini boshqarish, jamg‘arma mablag‘larini sarflash tartiblari belgilab berildi. Shuningdek, mazkur qaror bilan “Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi. Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalaridagi xodimlarni rag‘batlantirish miqdorlari hamda ularni budjet mablag‘lari, avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, budjetdan tashqari jamg‘armalar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.<sup>10</sup>

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, qo‘mita rahbariyatining asosiy funksional vazifalari hamda javobgarligi, qo‘mita faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta‘minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tartiblari belgilab berilgan.<sup>11</sup>

Yuqorida keltirib o‘tilgan normativ huquqiy hujjatlar asosida avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini 2-rasm orqali ifodalash mumkin.



<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi PQ-330-son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 14 fevraldagi PQ-2776-son “O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi 924-son “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni hamda O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.


<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 maydagi 295-son “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori

## 2-rasm. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari va xarajat yo‘nalishlari<sup>12</sup>

Ushbu moliyalashtirish manbalari bilan bog‘liq holda avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari smetalari tuziladi hamda davriy moliyalashtirib boriladi. Ushbu jarayonda Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi hamda uning hududiy boshqarmalari mablag‘larni taqsimlovchi sifatida qaralib, smetalar ijrosi bevosita avtomobil yo‘llari tizimidagi budget tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi hamda hisobi yuritiladi. Mazkur jarayonda mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishi, ularning hujjatlashtirilishi tizim tashkilotlarida ichki nazorat tizimining to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liq hisoblanadi.

Avtomobil yo‘llari tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi qator huquqiy hujjatlar bilan tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 26 dekabrda 360-son “Budget kodeksi” Qonuniga ko‘ra, budget tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari tarkibi belgilanadi. Bundan tashqari, tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromadlarning shakllanishi va ularning sarflanishi amalga oshiriladi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari asosida moliyalashtirish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni o‘rganadigan bo‘lsak, turlicha holatlarni ko‘rish mumkin (3-rasm).



## 3-rasm. Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tasarrufidagi budget tashkilotlarini moliyalashtirish hajmining davriy o‘zgarishi (mlrd. so‘m)<sup>13</sup>

Rasm ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, so‘nggi besh yil davomida qo‘mita tasarrufidagi Andijon viloyati avtomobil yo‘llari, Bukhoro viloyati avtomobil yo‘llari va Xorazm viloyati avtomobil yo‘llari tashkilotlarini moliyalashtirish hajmi yil sayin o‘sib borgan. Bunda, 2019-yil bilan taqqoslaganda

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikai Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Andijon viloyati avtomobil yo'llarini jami moliyalashtirish hajmi 2,5 marotabaga o'sgan. Xuddi shu davrda Buxoro viloyati avtomobil yo'llari 4,2 marotabaga ortgan. Xorazm viloyati avtomobil yo'llari moliyalashtirish esa, 1,6 marotabaga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur moliyalashtirishda budjet mablag'lari bilan budjetdan tashqari mablag'larning ulushi mavjud. Buni biz 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### Tizimdagi budjet tashkilotlarini davriy moliyalashtirishning manbalari to'g'risida ma'lumot (ming so'm)<sup>14</sup>

Budjet tashkilotlari	Moliyalashtirish manbalari	2019	2020	2021	2022	2023
Andijon viloyati avtomobil yo'llari	budget mablag'lari	197870483	195332680	374077706	294866765	525825787
	RJ mablag'lari	21297981	3164694	19168183	19743228	21520119
Buxoro viloyati avtomobil yo'llari	budget mablag'lari	192675227	254350919	501824758	570403826	821603198
	RJ mablag'lari	6844757	16919000	6160281	15227100	18729333
Xorazm viloyati avtomobil yo'llari	budget mablag'lari	182524175	212140673	388207292	454720701	298939816
	RJ mablag'lari	15235452	429111	14168970	15019109	16070446
<b>Jami</b>	<b>budget mablag'lari</b>	<b>573069885</b>	<b>661824272</b>	<b>1264109756</b>	<b>1319991292</b>	<b>1646368800</b>
	<b>RJ mablag'lari</b>	<b>43378190</b>	<b>20512804</b>	<b>39497434</b>	<b>49989437</b>	<b>56319898</b>

Jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkinki, Andijon viloyati avtomobil yo'llari, Buxoro viloyati avtomobil yo'llari va Xorazm viloyati avtomobil yo'llarini moliyalashtirishda budjet mablag'lari asosiy ulushni hamda rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari esa, pastroq ulushni egallab kelmoqda (2-jadval).

### 2-jadval

#### Qo'mita tizimdagi budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining ulushi to'g'risida ma'lumot (foizda)<sup>15</sup>

Budjet tashkilotlari	Moliyalashtirish manbalari	2019	2020	2021	2022	2023
Andijon viloyati avtomobil yo'llari	budget mablag'lari	90,3	98,4	95,1	93,7	96,1
	RJ mablag'lari	9,7	1,6	4,9	6,3	3,9
Buxoro viloyati avtomobil yo'llari	budget mablag'lari	96,6	93,8	98,8	97,4	97,8
	RJ mablag'lari	3,4	6,2	1,2	2,6	2,2
Xorazm viloyati avtomobil yo'llari	budget mablag'lari	92,3	99,8	96,5	96,8	94,9
	RJ mablag'lari	7,7	0,2	3,5	3,2	5,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, har uchala budjet tashkilotlarida ham budjetdan moliyalashtirish hajmi so'nggi besh yil davomida to'qson foizdan yuqorini tashkil qilgan. Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari esa, yil sayin kamayib borgan. Xususan, 2019-yilda Andijon viloyati avtomobil yo'llarida budjetdan moliyalashtirish 90,3 foiz, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari 9,7 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga ko'ra, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 96,1 va 3,9 foizni tashkil qilgan. 2019-yilda Buxoro viloyati avtomobil yo'llari budjetdan moliyalashtirish 96,6 foiz, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari 3,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga ko'ra, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 97,8 va 2,2 foizni tashkil qilgan. Xorazm viloyati avtomobil yo'llarida esa, 2019-

<sup>14</sup> O'zbekiston Resblikai Avtomobil yo'llari qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>15</sup> O'zbekiston Resblikai Avtomobil yo'llari qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



yilda budjetdan moliyalashtirish 92,3 foiz, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari 7,7 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga ko'ra, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 94,9 va 5,1 foizni tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi 404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobining subyektlari bo'lsa, asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi esa, umumiy holda buxgalteriya hisobini, shuningdek, budjet jarayonini bir qismini tashkil qilib, foydalanuvchilarni davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi zaruriy moliyaviy axborotlar bilan ta'minlaydi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida turadigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda, o'z tizimidagi tashkilotlarda faoliyat hususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi va hisobotlarining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida belgilangan tartibda me'yoriy hujjatlar chiqarishlari mumkin.

Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash manbalarini "faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan, budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish"<sup>16</sup> tartibi belgilangan.

"Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari budjet va budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tuzadi. Budjet tashkilotlarining "budjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko'rsatgan holda budjetdan tashqari mablag'lar tushumlarining hajmi va mazkur mablag'lardan foydalanish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda aniqlanishi, daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi prognozidan tashkil topishi"<sup>17</sup> belgilangan.

"Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma hamda O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS): "Yagona

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-son Qarori.

<sup>17</sup> "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom (2014 yil 15 dekabr, ro'yxat raqami 2634).



schyotlar rejasi”ga asosan avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha schyotlar, subschyotlar, buxgalteriya dastlabki va yig‘ma hujjatlari hamda hisob registrlari ikki yoqlama yozuvda aks ettirish tartiblari keltirilgan. “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida hisob obyektlari bilan bog‘liq muomalalar hisobini hujjatlashtirishni tartibga solish tizimlari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining “Hisob siyosati” nomli 1-son standartiga asosan barcha budget tashkilotlari qatorida avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari ham o‘zining smetalar ijrosini amalga oshirish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritishda ichki nazorat tizimini tartibga solish hamda tizimli buxgalteriya axborotlarni shakllantirish orqali samarali boshqaruvni joriy qilish uchun hisob siyosatini shakllantirishi zarur. Hisob siyosati belgilangan printsiplarga muvofiq budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo‘llaniladigan aniq uslublar, asoslar, yo‘l qo‘yishlar, qoidalar hamda usullar majmui<sup>18</sup> sifatida bir moliya yili davomida qo‘llaniladi.

Hisob siyosati barcha savollarni qamrab olgan holda, hisob jarayonlari bilan bog‘liqlikda, ya‘ni budget tashkilotlari buxgalteriya hisobi tizimining maqsadlilikini ta‘minlashi zarur. Puxta tuzilgan hisob siyosati bosh hisobchining yuqori malakali ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, o‘z navbatida kelgusida budget tashkilotining xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.


Hisob siyosati O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, buxgalteriya hisobi subyekti faoliyat sohasiga oid nizomlar va standartlar asosida ishlab chiqiladi. Hisob siyosatini ishlab chiqishda uning tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlariga alohida e‘tibor qaratiladi (4-rasm).

Buxgalteriya hisobi subyekti rahbari farmoyishiga asosan hisob siyosati hisobot yili oxirida ishlab chiqiladi va kelgusi moliya yili uchun tasdiqlanadi. Ushbu farmoyishga ko‘ra bir vaqtning o‘zida quyidagilar ham tasdiqlanadi:

- buxgalteriya xodimlarini lavozim yo‘riqnomalari;
- sintetik va analitik schyotlarni aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi ishchi schyotlari rejasi;
- hujjatlar aylanish tartibi va grafigi;
- mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarni baholash usullari;
- aktivlarni hisobdan chiqarish uslubi;
- inventarizatsiya o‘tkazish tartibi va muddatlari;
- hisob axborotlarini qayta ishlash texnologiyasi va boshqa zaruriy hujjatlar.

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (1-sonli BHS) «Hisob siyosati» (2016 yil 27 dekabr, ro‘yxat raqami 2853).



**4-rasm. Hisob siyosatining tarkibiy jihatlar<sup>19</sup>**

Hisob siyosatini ishlab chiqish va uning tarkibiy tuzilishi barcha buxgalteriya hisobi subyektlari uchun umumiy jihatlariga ega bo'lishi mumkin. Ammo, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob obyektlari, mablag'lari, mablag' manbalari, mablag'lardan foydalanish tartibi hamda daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirish usullari bo'yicha farqli jihatlar mavjud (3-jadval).

**3-jadval**

**Buxgalteriya hisobi subyektlarida hisob siyosatini shakllantirish bilan bog'liq farqli jihatlar<sup>20</sup>**

Xo'jalik yurituvchi subyektlari	Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari
<b>HISOB OB'YEKTLARI</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>- uzoq muddatli aktivlar;</li> <li>- joriy aktivlar;</li> <li>- majburiyatlar;</li> <li>- xususiy kapital;</li> <li>- moliyaviy natijalar;</li> <li>- xarajatlar;</li> <li>- daromadlar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- nomoliyaviy aktivlar;</li> <li>- moliyaviy aktivlar;</li> <li>- debitor majburiyatlar;</li> <li>- kreditor majburiyatlar;</li> <li>- moliyaviy natijalar;</li> <li>- xarajatlar;</li> <li>- daromadlar.</li> </ul>
<b>DAROMAD VA XARAJATLARNI HISOBDA AKS ETTIRISH USULLARINING QO'LLANILISHI</b>	
<b>Hisoblash usuli</b>	<b>Hisoblash va kassa usuli</b>
<b>MABLAG' MANBALARI</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>- o'z mablag'lari;</li> <li>- jalb qilingan mablag'lar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- budjet mablag'lari;</li> <li>- Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari;</li> <li>- Avtomobil yo'llari qo'mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari;</li> <li>- rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;</li> <li>- boshqa budjetdan tashqari mablag'lar.</li> </ul>

Xo'jalik yurituvchi subyektlar va avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish bilan bog'liq farqli jihatlar mavjud. Shu jihatdan, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisob siyosatini ishlab chiqish bo'yicha alohida standart ishlab chiqilganligi asosli. Ammo, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining hisob obyektlari, mablag'lari, mablag' manbalari, mablag'lardan foydalanish tartibi hamda daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirish usullari

<sup>19</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>20</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

bo'yicha farqli jihatlar mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bilan bog'liq alohida hisob siyosati ishlab chiqilishi va buning uchun hisob siyosatiga oid standart qabul qilinishi kerak.

“Hisob siyosati” nomli 1-son BHS standarti avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlariga bo'lgan ishonchlilik darajasini va ma'lum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarini, shuningdek, boshqa avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari bilan o'zaro solishtirish darajasini oshirishga mo'ljallangan.

Hisob siyosati avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari tomonidan budget to'g'risidagi qonun hujjatlarida mavjud o'zaro bir-birini istisno etuvchi bir nechta hisob yuritish usullaridan birini tanlash maqsadida tuziladi. Bu standart avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob siyosatini tanlash va qo'llash, hisob siyosatiga o'zgarishlarning hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llanilishi lozim.

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida moliya xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda buxgalteriya hisobining muhim usuli hisoblangan inventarizatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Inventarizatsiya avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchliligini ta'minlash, moddiy qiymatliklarning but saqlanishi va majburiyatlarning holatini nazorat qilishga xizmat qiladi.

Inventarizatsiya avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari amaliyotida doimiy amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri bo'lib, hozirgi zamon talabidan kelib chiqib unga qo'yilayotgan vazifalar asosida uning o'ziga xos jihatlari hamda nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Nazariy jihatdan inventarizatsiya nazorat qilishning bir elementi hisoblansa, amaliy jihatdan inventarizatsiyani o'tkazish jarayonida nazorat amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida inventarizatsiya rejali tartibda hisob obyektlarining turlari yuzasidan quyidagi davrlar bo'yicha o'tkaziladi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlarida hisob obyektlari bo'yicha rejali inventarizatsiyani o'tkazishning davriyligi<sup>21</sup>

Hisob obyektlari	Rejali inventarizatsiyaning o'tkazilish davri
Asosiy vositalar	Ikki yilda kamida bir marotaba
Kutubxona fondlari	Besh yilda bir marotaba
Nomoddiy aktivlar	Ikki yilda kamida bir marotaba
Tovar-moddiy zaxiralar	Yilda kamida bir marotaba
Yonilg'i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari	Har chorakda bir marotaba
Pul mablag'lari, pul hujjatlari, boyliklar va qat'iy hisobdagi blanklar	Har oyda bir marotaba

<sup>21</sup> “Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish” nomli 19-son BHMS asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari hisob siyosatida belgilash orqali yillik moliyaviy hisobotlarni tuzishdan oldin rejali tartibda to'liq inventarizatsiya o'tkazishlari mumkin. Rejadan tashqari esa, mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda, moddiy javobgar shaxslar almashganda, o'g'irlik yoki suiste'mol, tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki favqulodda vaziyatlar yuz berganda, avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari faoliyati tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining amaldagi holati”** deb nomlanib, unda avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish amaliyoti, avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritish va ichki nazorat tizimini amalga oshirish hamda avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularning tahlili yoritilgan.

Qo'mita va uning hududiy boshqarmalarining hisob siyosatini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi buyruqlari bilan tasdiqlangan Nizomlar va Yo'riqnomalar, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hamda Avtomobil yo'llari qo'mitasi buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomlar va Yo'riqnomalar, O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standartlari hamda budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va tartibga solish masalalarini o'zida mujassam etgan boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanildi.

Hisob siyosatini shakllantirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati” (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 27-dekabrda ro'yxat raqami 2853-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan)dan foydalanildi.

Hisob siyosati qo'mita raisi va uning hududiy boshqarmalari boshliqlarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va yildan-yilga izchil qo'llaniladi.

Hisob siyosati moliyaviy hisobotni barcha qo'llanilayotgan budget hisobi standartlari asosida shakllantirilishini ta'minlaydi.

Moliyaviy hisobot o'ziga xos talablar bo'lmaganida:

a) ahamiyatga ega bo'lishi - ma'lumot undan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi;

b) ishonchli bo'lishi - qo'mita va uning hududiy boshqarmalari faoliyatining barcha natijalari va moliyaviy holatini xolisona ko'rsatishi, hodisalar va operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi;

v) xolis (beg'araz) bo'lishi va majburiy bo'lmasligi;

g) to‘la (tugallangan) bo‘lishi — qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari xo‘jalik faoliyatining barcha faktlarini to‘la aks ettirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasiga asosan buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni qo‘mita raisi hamda hududiy boshqarmalar boshliqlari amalga oshiradi.

Qo‘mita raisi hamda hududiy boshqarmalar boshliqlari:

hisob siyosati, ichki hisob va hisobot tizimi ishlab chiqilishini;

ichki nazorat tartibini;

buxgalteriya hisobi to‘liq va ishonchli yuritilishini;

hisob hujjatlarining but saqlanishini;

moliyaviy hisobotning tayyorlanishini;

soliq hisobotining va boshqa moliyaviy hujjatlarning tayyorlanishini;

hisob-kitoblar o‘z vaqtida amalga oshirilishini;

buxgalteriya hisobiga oid qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Bosh hisobchi boshchilik qiladigan qo‘mita hamda uning hududiy boshqarmalarining buxgalteriyasi mustaqil tarkibiy bo‘linma hisoblanadi va qo‘mita hamda uning hududiy boshqarmalarining boshqa biron-bir bo‘linmasi tarkibiga kiritilishi taqiqlanadi.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari bosh hisobchisi bevosita qo‘mita raisi hamda hududiy boshqarmalar boshliqlari, buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish va taqdim qilish masalalari bo‘yicha esa, agar, qonunchilikda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, yuqori tashkilot bosh hisobchisiga ham bo‘ysunadi hamda tashkilotda buxgalteriya hisobini yuritilishiga, moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida va to‘liq topshirilishiga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga javobgar bo‘ladi.

Bosh hisobchining xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlar asosida rasmiylashtirish va ularni buxgalteriya hisobi xizmatiga taqdim etish bo‘yicha talablari qo‘mita va uning hududiy boshqarmalar barcha xodimlari uchun majburiydir.

Bosh hisobchiga uning hisob va hisobot bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan topshiriqlarni berish mumkin emas. Shuningdek, bosh hisobchiga pul mablag‘lari va moddiy qimmatliklar uchun bevosita moddiy javobgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni yuklash mumkin emas. Unga banklar va boshqa tashkilotlardan bevosita pul mablag‘larini olish taqiqlanadi.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari buxgalteriyasining xodimlar soni namunaviy shtatlar jadvaliga asosan aniqlanadi va har bir xodim uchun bajaradigan vazifalarini bosh hisobchi lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilaydi.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi “UzASBO” dasturiy majmuasida elektron ko‘rinishda yuritiladi va moliyaviy hisobotlar shakllantiriladi.

Markazda buxgalteriya hisobi “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)ga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritishning memorial order shaklida olib boriladi.

Tekshirilgan va hisobga olish uchun qabul qilingan hujjatlar sanasi bo‘yicha tartiblashtirilib, quyidagi doimiy raqamli memorial order — jamlanma qaydnomalar bilan rasmiylashtiriladi:

1-memorial order — kassa operatsiyalari bo‘yicha jamlanma qaydnoma (381-son shakl);

2-memorial order — budjet mablag‘larining harakatiga doir jamlanma qaydnoma (381-son shakl);

3-memorial order — budjetdan tashqari mablag‘lar harakatiga doir jamlanma qaydnoma (381-son shakl);

5-memorial order — ish haqi va stipendiyalar bo‘yicha hisob-kitob varaqalari yig‘indisi (405-son shakl);

6-memorial order — turli tashkilotlar va muassasalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo‘yicha jamlanma qaydnoma (408-son shakl);

8-memorial order — hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha jamlanma qaydnoma (386-son shakl);

9-memorial order — asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va joydan joyga ko‘chirilishi bo‘yicha jamlanma qaydnoma (438-son shakl);

11-memorial order — oziq-ovqat mahsulotlarining kirimiga doir jamlanma qaydnoma (398-son shakl);

12-memorial order — oziq-ovqat mahsulotlarining sarfiga doir jamlanma qaydnoma (411-son shakl);

13-memorial order — materiallar sarfiga doir jamlanma qaydnoma (396-son shakl);

17-memorial order — asosiy vositalarga eskirish hisoblash (274-son shakl);

18-memorial order — asosiy fondlarni har yili qayta baholash (274-son shakl);

19-memorial order — yilni yakunlash operatsiyalari (274-son shakl);

20-memorial order — beg‘araz yoki markazlashgan tartibda kelgan tovar-moddiy zaxiralari (274-son shakl);

21-memorial order — xorijiy valyutani qayta baholash (274-son shakl);

22-memorial order — boshqa hisoblar (274-son shakl);

23-memorial order — tovar-moddiy zaxiralarni ko‘chirish (274-son shakl).

Yuqorida keltirib o‘tilgan memorial orderlar buxgalteriya xodimi (ijrochi) tomonidan “UzASBO” dasturiy majmuasida elektron ko‘rinishda birlamchi hisob hujjatlari asosida har oyda shakllantirilib boriladi.

Operatsiyalar amalga oshirilganligini qayd etuvchi boshlang‘ich hisob hujjatlari va ularni o‘tkazishga doir farmoyishlar xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi uchun asos bo‘ladi.

Boshlang'ich hisob hujjatlari xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilayotgan paytda yoki operatsiyalar amalga oshirib bo'linganidan keyin tuziladi.

Hisobot davriga tegishli bo'lgan xo'jalik operatsiyalari, agar ular amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo'lsa, tegishli boshlang'ich hujjat rasmiylashtirilib, buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida inventarizatsiyani o'tkazish tartibi va muddatlari "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) ga muvofiq amalga oshiriladi. Inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash;

haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

Quyidagi hollarda inventarizatsiya o'tkazilishi majburiy:

mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda markazni o'zgartirish (davlat tasarrufidan chiqarilgan)da;

yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan.

Hisobot yilidagi inventarizatsiyalar soni, ularni o'tkazish sanasi, aktivlar va majburiyatlar ro'yxati qo'mita raisi hamda hududiy boshqarmalar boshliqlari tomonidan belgilanadi.

## 5-jadval

### Qo'mita va uning hududiy boshqarmalari balansidagi ko'rsatkichlarni inventarizatsiyadan o'tkazish muddatlari<sup>22</sup>

Balans ko'rsatkichlari	Majburiy tartibda inventarizatsiya o'tkazish muddati	Boshqa hollarda	izoh
Asosiy vositalar	yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan	moddiy javobgar shaxslar	Umumiy holatda
Nomoddiy aktivlar	yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan	almashganda; o'g'irlik yoki suiiste'mol, shuningdek, qiymatliklarni buzilishi faktlari aniqlanganda;	Umumiy holatda
Tovar-moddiy zaxiralar	yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan	tabiiy ofatlar yuz berganda;	Umumiy holatda
Oziq-ovqat mahsulotlari	Har chorakda	nazorat-taftish tadbirlari davomida;	
Dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari	Har chorakda	Markaz tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda;	
Inventar va xo'jalik jihozlari	yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan		
Yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari	Har chorakda		
Mashina va asbob-uskunalarining ehtiyot qismlari	yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan		
Boshqa tovar-moddiy zaxiralar	yillik moliyaviy hisobotni		

<sup>22</sup> "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

	tuzish oldidan	qonun hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.	
Pul mablag‘lari, qiymatliklar va qat‘iy hisobdagi blanklar	Har oyda		
Moliyaviy qo‘yilmalar	yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan		

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun qo‘mita raisi hamda hududiy boshqarmalar boshliqlarining buyrug‘i bilan quyidagi tarkibda doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasi tuziladi va doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasining vazifalari ko‘rsatiladi.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining “Budget hisoboti” nomli standarti (3-sonli BHS) (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 18-yanvarda 3124-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzadi va topshiradi.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarining choraklik moliyaviy hisobotlari hisobot yilining 1 aprel, 1 iyul va 1 oktyabr holatiga, yillik moliyaviy hisoboti esa, kelgusi hisobot yilining 1 yanvar holatiga ko‘ra tuziladi.

## 6-jadval

### Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari<sup>23</sup>

Markaz tomonidan topshiriladigan moliyaviy hisobotlar tarkibi	Choraklik hisobotni taqdim etish muddati	Yillik hisobotni taqdim etish muddati
Balans (1-son shakl)	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot (2-son shakl)	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma‘lumot	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Budget tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hisobot	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Joriy yilning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobot	-	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Nomoliyaviy aktivlarning harakati to‘g‘risidagi hisobot (5-son shakl)	-	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar
Budget tashkilotini chet el valyutalari bo‘yicha pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvariga qadar

Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xati ilova qilinadi. Tushuntirish xatida xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosi jarayoniga ta’sir qilgan asosiy omillar, jumladan, budgetdan ajratilgan mablag‘larni iqtisod qilinishining sabablari (tahlillari) (agarda iqtisod qilingan bo‘lsa), debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablari va vaqti, yo‘l qo‘yilgan muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar, qonunchilikka muvofiq markazga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar va ularning sarflanishi to‘g‘risida ma‘lumotlar, shuningdek hisobot davrida markazga beg‘araz yordam va markazlashgan tartibda kelib tushgan moddiy qiymatliklar

<sup>23</sup> «Budget hisoboti» nomli 3-son budget hisobi standarti asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



to'g'risidagi ma'lumotlar, kamomadi aniqlangan va o'g'irlangan pul mablag'lari va boshqa tovar-moddiy qimmatliklar summasi va hisobotlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa tushuntirishlar keltiriladi. Bundan tashqari, hisobot yilining birinchi choragi bo'yicha moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xatida asosiy vositalar va boshqa aktivlarini (jumladan, tugallanmagan qurilish va o'rnatiladigan asbob-uskunalarni) qayta baholash bo'yicha axborotlar ochib beriladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish”** deb nomlanib, unda avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari hamda avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda ichki nazorat tizimini takomillashtirish yo'llari bayon qilingan.

Tadqiqot obyekti hisoblangan Avtomobil yo'llari qo'mitasi tizimidagi budget tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi bilan bog'liq qator muammoli holatlar kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni sohaning o'ziga xos jihatlari, moliyalashtirish yo'nalishlari, tizimda budget tashkilotlari bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar ham parallel faoliyat yuritishi, tizim tashkilotlari bir vaqtning o'zida budget byurtmachisi, budget mablag'larini taqsimlovchi, budget tashkiloti va budgetdan mablag' oluvchi sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, quyidagi murakkabliklar va muammolar kuzatilmoqda:

qo'mita tasarrufidagi budget tashkilotlarida qonunchilik asosida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari shakllantiriladi hamda ushbu mablag'larning 25 foizi xodimlarni moddiy rag'batlantirish va 75 foizi moddiy texnik bazani mustahkamlash maqsadlarida sarflanadi. Pul mablag'larining mazkur maqsadlarda sarflanishi boshqaruv xodimlariga bog'liq sanaladi. Boshqaruv xodimlari rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'larini hisobot davri boshida sarflash rejalashtirilgan maqsadlarda emas, balki, boshqa maqsadlarda yo'naltirishlari holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, tizim tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'larini maqsadli rejalashtirish va sarflash bilan bog'liq turli yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda;

qo'mita tasarrufidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayoni tizimning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan holda amaldagi qonunchilik asosida smetalar ijrosi hisobi va moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadlarida har bir tashkilotning alohida yondashuvi asosida amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur holat tizimdagi tashkilotlarning hisob obyektlarini tan olish, baholash va hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzishda yagona yondashuvga asoslanmaganligi bois, jamlanma buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot axborotlarini shakllantirish, ko'rsatkichlarni taqqoslash, tahlil qilish, javobgarlik markazlarining hisobdorligini ta'minlashda bo'shliqlarni vujudga keltirmoqda;

qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida moliya-xo'jalik faoliyatini tartibga solish, shtatlar jadvali va smetalar ijrosi, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni amalga oshirish, xodimlar va tuzilmalarning hisobdorligi, nazorat subyektlarida aktivlarni noto'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan maqsadsiz foydalanishni oldini olish, hisob ishlarini yuritishda buxgalteriya hisobi

xodimlarining lavozimlari bo'yicha vazifalarining aniq belgilanmaganligi, buxgalteriya hujjatlari va moliyaviy hisobotlarning to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlashda ichki nazorat tizimini buzilishi holatlari kuzatilmoqda;

qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida aktivlarning mavjudligi va to'g'ri foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda inventarizatsiyani tashkil etish, o'tkazish, natijalarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirishda kuzatilayotgan holatlarga turlicha yondashuvlar kuzatilmoqda. Jumladan, asosiy vositalarning rejali tartibda inventarizatsiyadan o'tkazilish davriyligi turlicha, inventarizatsiya natijasida yaroqsiz holga kelgan jihozlar dalolatnoma asosida to'g'ridan-to'g'ri hisobdan chiqarilgan ammo, ular bilan bog'liq ikkilamchi homashyolarning kirim qilinmaslik holatlari mavjud, xo'jalik va kanslyariya mahsulotlari bilan ta'minlash uzluksizligi hamda foydalanish me'yorlarning o'zaro mos kelmaslik holatlari mavjud;

qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida xo'jalik va kanslyariya mahsulotlari eng ko'p sarflanadigan tovar moddiy zaxira sanalib, budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilinsada, umumlashtirilgan holda hisobda aks ettirilmoqda. Kirim qilingan xo'jalik va kanslyariya mahsulotlari qiymati, ularni sarflash natijasida balansdan chiqim qilinadigan qiymat moliyalashtirish manbalari bo'yicha o'zaro mos kelmaslik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, buxgalteriya hisobi xo'jalik va kanslyariya mahsulotlari yuzasidan tahliliy hisob ishlari yuritilmasligi oqibati sanaladi.

Yuqoridagi munozarali holatlarni ijobiy hal etish, Avtomobil yo'llari qo'mitasi tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorati tizimini takomillashtirish uchun quyidagi qator ishlarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, qo'mita va uning hududiy boshqarmalarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yiliga oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o'tkazish zarur. Bu orqali, moliya yili davomida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan daromadlar va xarajatlar smetalari doirasida maqsadli foydalanishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini umumlashtirgan namunaviy hisob siyosatini amaliyotga joriy etish zarur. Mazkur hisob siyosatining amaliyotga joriy etilishi qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishi, inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash, sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, qo'mita va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi namunaviy nizom ishlab chiqish zarur. Ushbu namunaviy nizomning

amaliyotga joriy etilishi qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida tarkibiy bo‘linmalar tomonidan aktivlarni to‘g‘ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarni bajarish, buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to‘liqligi hamda to‘g‘riligini ta‘minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda obyektivligini ta‘minlash imkoniyatini beradi.

To‘rtinchidan, qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari shakllantirish maqsadga muvofiq. Buning natijasida, qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozimlari doirasidagi vazifalarini aniq belgilash, buxgalteriya hisobi xodimlarining hisobdorligi va javobgarligini ta‘minlash, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar axborotlarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida hisob obyektlari bo‘yicha rejali inventarizatsiyani o‘tkazishning tartibi va davriyligi, inventarizatsiya natijalarini hujjatlashtirish va hisobda aks ettirishning namunasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Natijada, hisob obyektlarining turlari bo‘yicha rejali davriy inventarizatsiya o‘tkazish orqali hisob obyektlarining mavjudligi va ulardan maqsadli foydalanish holatini o‘rganish asosida doimiy nazoratni amalga oshirish, hisob obyektlariga oid buxgalteriya axborotlarining haqqoniyligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari hisob siyosatida xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari bo‘yicha moliya yili oxiriga bo‘lgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun me‘yorlarini 15 kunga uzaytirilishi zarur (7-jadval).

## 7-jadval

### Xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlaridan foydalanish kunlari<sup>24</sup>

Ko‘rsatkich nomi	Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalari (1111-son) bo‘yicha	Taklif
Xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari	45 kun	60 kun

Bu orqali, qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha “Xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Yettinchidan qo‘mita tizimidagi budjet tashkilotlarida budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarini 161400/1 (063/1) “Budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” hamda budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarini 161400/2 (063/2) “Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari” ishchi schyotlarida hisobga olish zarur (8-jadval).

<sup>24</sup> Normativ huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

**Xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari hisobini yuritish uchun taklif etilayotgan ishchi schyotlar tarkibi**<sup>25</sup>

<b>2169-son yo‘riqnoma bo‘yicha ishchi buxgalteriya schyotlari</b>	<b>2-son BHS bo‘yicha ishchi buxgalteriya schyotlari</b>
063/1 “Budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari”	161 400/1 “Budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari”
063/2 “Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari”	161 400/2 “Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari”

Ushbu ishchi buxgalteriya schyotlarining boshqa schyotlar bog‘lanishini quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

1. budjet mablag‘lari hisobidan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarining kirimini hisobga olish:

Debet 161 400/1 (063/1) “Budjet mablag‘lari hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari”;

Kredit 341 100/1 (150/1) – “Budjet mablag‘lari bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar bilan kreditorlik qarzar yuzasidan hisob-kitoblar”.

2. budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarining kirimini hisobga olish:

Debet 161 400/2 (063/2) “Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan kirim qilingan xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlari”;

Kredit 341 100/2 (150/2) – “Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar bilan kreditorlik qarzar yuzasidan hisob-kitoblar”.

Buning natijasida, qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha xo‘jalik va kanselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

## XULOSA

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasida, quyidagi muhim xulosalar va takliflar shakllantirildi:

1. Bugungi kunda budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda budjet mablag‘lari bilan bir vaqtda budjetdan tashqari mablag‘lar muhim o‘rin egallaydi. Bu esa, budjet tashkilotlarida moliya-xo‘jalik faoliyatida har bir moliyalashtirish manbalari bilan bog‘liq murakkab va o‘ziga xos jihatlarni keltirib chiqaradi. Budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi bilan bog‘liq mavjud asoslarni zamonaviy talablar asosida o‘rganish, tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

<sup>25</sup> Normativ huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

2. Avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlar va budget tashkilotlaridan iborat bo'lib, tizimdagi budget tashkilotlari tizimni boshqarish, budget mablag'larini taqsimlash, davlat buyurtmachisi sifatida faoliyatni amalga oshirish, budget va budgetdan tashqari mablag'larni tasarruf etish, maqsadli va manzilli sarflash, tizimdagi tashkilotlarning hisobdorligi va nazoratini ta'minlash kabi qator vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar bilan bog'liqlikda budget tashkilotlari davlat budjeti, Respublika yo'l jamg'armasi budjeti va budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. o'z navbatida, mazkur moliyalashtirish manbalari bo'yicha hisob ishlarini tashkil etish, yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzib taqdim etish, ichki nazorat tizimini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

3. Avtomobil yo'llar tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va ichki nazorat tizimini amalga oshirish bevosita tizim tashkilotlari faoliyatiga oid normativ huquqiy hujjatlar, tizimini moliyalashtirish va moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish hamda buxgalteriya hisobining me'yoriy huquqiy asoslariga tayangan holda olib boriladi. Ushbu holat avtomobil yo'llari tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ikchi nazorat tizimining boshqa soha tashkilotlaridan farqli jihatlarini keltirib chiqaradi.

4. Avtomobil yo'llari tizimidagi budget tashkilotlari qo'mita va uning hududiy boshqarmalari sanalib, tizimni boshqarishga oid faoliyatini amalga oshiradi. Ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bevosita namunaviy hisob siyosatini shakllantirish orqali amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, tizimni samarali boshqarish, hisobdorlik va nazoratni yo'lga qo'yish uchun ichki nazorat tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish talab etiladi.

5. Avtomobil yo'llari tizimidagi budget tashkilotlarining faoliyati samaradorligi bevosita ularni oqilona moliyalashtirish va boshqarish bilan uzviy bog'liq bo'lganligi bois, ularning faoliyatini doimiy nazorat qilish hamda to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ichki nazorat tizimining mavjudligi va uni amalga oshirish muhim hisoblanar ekan. Ichki nazorat tizimi bir vaqtning o'zida tizim tashkilotlari bo'linmalari va xodimlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi holati, tashkilotda normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilinishi, belgilangan maqsad va rejalarga erishish natijalari, mablag'larning to'g'ri saqlanishi va maqsadli sarflanishi, bo'linmalarning hisobdorligi, moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga oid axborotlarning ishonchliligini ta'minlashning vositasi sanaladi.

6. Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yiliga oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o'tkazish zarur. Bu orqali, moliya yili davomida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan daromadlar va xarajatlar smetalari doirasida maqsadli foydalanishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

7. Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini umumlashtirgan namunaviy hisob siyosati shakllantirish muhim sanaladi. Namunaviy hisob siyosati qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishi, inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash, sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga xizmat qiladi.

8. Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi namunaviy nizom ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu namunaviy nizom qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida tarkibiy bo'linmalar tomonidan aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejimli va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarni bajarish, buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

9. Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari hisob siyosatida xo'jalik va kanselyariya mahsulotlari bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun me'yorlarini 15 kunga uzaytirilishi zarur. Buning natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha "Xo'jalik va kanselyariya mahsulotlari" xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

10. Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida budjet budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan kiritilgan xo'jalik va kanselyariya mahsulotlarini alohida ishchi buxgalteriya schyotlarida hisobga olish zarur. Bu orqali, qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha xo'jalik va kanselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУРАХМАНОВ РАМАЗАН АБДУЛЛАЕВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УЧЕТА И ВНУТРЕННЕГО  
КОНТРОЛЯ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**08.00.08 - Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по**  
**экономическим наукам**

**Ташкент – 2024 г.**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером B2023.4.PhD/Iqt3549 в Высшей аттестационной комиссии.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Абдувахидов Фарход Туйчиевич**  
кандидат экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Хажимуратов Низомжон Шукуруллаевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Маматкулов Муроджон Шукурович**  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится на заседании научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2024 года. (Адрес: 100066, Ташкент, Улица И.Каримова, дом 49. Тел.: (998971) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [tstu\\_info@tdtu.uz](mailto:tstu_info@tdtu.uz).)

Ознакомиться с диссертацией можно в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован под номером \_\_\_\_). (Адрес: 100066, Ташкент., Улица И.Каримова, дом 49. Тел.: (998971) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz)).

Автореферат диссертации распространен "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2024 года

Протокол цифрового реестра за № от ("\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2024 года).

**С.У. Мехмонов**

Председатель научного совета по присуждению научных степеней, доктор экономических наук, профессор

**У.В. Гафуров**

Научный секретарь научного совета по присуждению научных степеней, доктор экономических наук, профессор

**С.К. Худойкулов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению научных степеней, доктор экономических наук, профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях усиления глобальной конкуренции в мире особое внимание уделяется обеспечению подотчетности системы бухгалтерского учета государственного сектора по целевому и адресному расходованию бюджетных средств, а также открытости информации о них. Согласно отчету «Индекс финансовой отчетности в государственном секторе за 2021 год», опубликованному Международной федерацией бухгалтеров (IFAC), 57% стран, внедривших метод начисления в мировом бухгалтерском учете, используют международные стандарты бухгалтерского учета в государственном секторе (IPSAS)<sup>1</sup>. Разрабатываются рекомендации правительствам по расширению роли бухгалтерского учета государственного сектора и системы внутреннего контроля в обеспечении непрерывности распределения, исполнения и контроля средств в бюджетной системе.

В мире проводится ряд исследований по совершенствованию системы организации, ведения бухгалтерского учета, составления финансовой отчетности и внутреннего контроля в организациях государственного сектора. Проблемы, связанные с эффективной организацией источников финансирования организаций государственного сектора, правильным формированием их доходов, целевым расходованием формируемых доходов, обеспечением открытости информации и повышением подотчетности формируемой отчетности, совершенствованием системы бухгалтерского учета и внутреннего контроля в организациях государственного сектора, совершенствованием системы бухгалтерского учета и внутреннего контроля в бюджетных организациях системы автомобильных дорог, являются приоритетными направлениями научных исследований в этой области.

В Узбекистане ведется работа по обеспечению подотчетности и открытости расходования средств путем приведения порядка организации системы бухгалтерского учета и внутреннего контроля в бюджетных организациях в соответствие с международными стандартами бухгалтерского учета в Государственном секторе. В системе автомобильных дорог, которая является объектом исследования, определено направление средств “в целях строительства и реконструкции автомобильных дорог, мостов и путепроводов в 2024 году, капитального и текущего ремонта, хранения, озеленения, предотвращения и ликвидации последствий стихийных бедствий, сохранения комитета и его неструктурированных организаций в общей сложности 5 484 823,6 млн. сум”<sup>2</sup>. Целевое и адресное расходование этих средств, контроль и отчетность за проводимой по ним работой непосредственно определяют необходимость организации системы бухгалтерского учета и внутреннего контроля в организациях системы

---

<sup>1</sup> International Public Sector Financial Accountability Index 2021 Status Report. <https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/main-challenges-public-sector-accounting-reforms-and-world-bank-s-public-sector-accounting-and>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/en/docs/6707765#6710514>

автомобильных дорог и требуют проведения научных исследований, направленных на совершенствование этих процессов. В частности, возникают задачи оценки текущего состояния организации и ведения бухгалтерского учета в организациях системы, изучения состояния функционирования существующей системы внутреннего контроля, выявления проблем, связанных с системой бухгалтерского учета и внутреннего контроля, а также разработки научных предложений и рекомендаций по их устранению.

